

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 84 sahifa.

2025-yil, noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich

Qarshi xalqaro universiteti

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Email: haqqulovf1990@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayonlari, xorij tajribalari hamda O'zbekistonda integratsiyani kuchaytirish imkoniyatlari o'rganilgan. AQSH, Fransiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan tamoyillar asoslab berilgan. 2020–2024 yillar kesimidagi mehnat bozori statistik ma'lumotlari asosida yoshlar ishsizligi dinamikasi, bandlik darajasi va malaka nomutanosibligi bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari OTM–ish beruvchi hamkorligini kuchaytirish, dual ta'lim tizimini kengaytirish, kompetensiya modeli va soft skills rivojiga asoslangan ta'limni joriy qilish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mehnat bozori, malaka nomutanosibligi, dual ta'lim, bandlik, xorij tajribasi.

Abstract. This article examines the integration between higher education institutions and the labor market in Uzbekistan based on foreign experience. The models of the USA, France, South Korea, and EU countries are analyzed and adapted recommendations are proposed for Uzbekistan. Labor market statistics for 2020–2024 are used to assess youth unemployment trends, skill mismatches, and employment indicators. The study proposes strengthening university–employer collaboration, expanding dual education elements, and introducing competence-based and soft skills-centered curricula.

Key words: higher education, labor market, skill mismatch, dual education, employability, international experience.

Аннотация. В статье анализируется интеграция высшего образования и рынка труда Узбекистана на основе зарубежного опыта. Рассмотрены модели США, Франции, Южной Кореи и стран ЕС, даны рекомендации по их адаптации. На основе статистики рынка труда 2020–2024 годов изучены тенденции молодежной безработицы, занятость и несоответствие квалификаций. Результаты показывают необходимость укрепления сотрудничества вузов и работодателей, расширения элементов дуального обучения и внедрения компетентностного обучения.

Ключевые слова: высшее образование, рынок труда, разрыв компетенций, дуальное обучение, занятость, международный опыт.

KIRISH

Global mehnat bozori o'zgarishlari, texnologik transformatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan yangilanmoqda. World Economic Forum 2023-yil prognozlariga ko'ra, yaqin 5 yil ichida mavjud kasblarning kamida 48 foizi to'liq yoki qisman qayta dizaynlashni talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari nafaqat nazariy bilim berishi, balki real sektor bilan bevosita integratsiyada bo'lgan holda, bozor ehtiyojiga mos mutaxassislar tayyorlashi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "Ta'lim tizimi iqtisodiyotning tayanchi bo'lishi, ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratilishi shart." Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab oliy ta'lim qamrovi 9 foizdan 47,7 foizga oshdi, yangi universitetlar tashkil etildi, xalqaro dasturlar soni ko'paydi.

Xorijiy tajriba va yondashuvlardan ma'lumki, dual ta'lim, ish joyida malaka oshirish, kasbiy yo'naltirish tizimi, karyera markazlari hamda "ta'lim–ilm–ishlab chiqarish" uchburchagi muvaffaqiyat garovidir. Shuning uchun ushbu tadqiqot O'zbekiston oliy ta'limi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish hamda milliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori integratsiyasi masalasi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda har tomonlama o'rganilgan. Mourshed, Farrell va Barton o'zlarining Education to Employment: Designing a System that Works nomli tadqiqotida oliy ta'limdan ish bozoriga o'tish jarayonida yuzaga keladigan tizimli muammolarni



tahlil qilib, asosiy e'tiborni bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalariga qaratgan. Ular ta'lim jarayoni bilan ish beruvchilar ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish uchun dual ta'lim, stajirovka dasturlari va karyera markazlari tarmog'ini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Tomlinson esa Graduate Employability: A Review of Conceptual and Empirical Themes asarida "employability" tushunchasini inson kapitali nazariyasi asosida izohlaydi. U bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlari nafaqat ularning texnik bilimlariga, balki ijtimoiy kapital, moslashuvchanlik va kommunikatsion salohiyatga ham bevosita bog'liqligini qayd etadi. Tomlinson ta'kidlashicha, universitetlar o'quv dasturlarini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirib, kompetensiya modeliga asoslangan baholash tizimlarini keng joriy etishi kerak.

OECD ekspertlari tomonidan tayyorlangan How Are Young Graduates Settling into the Labour Market? va Labour Market Relevance and Outcomes of Higher Education in Four US States nomli hisobotlarda esa mehnat bozoriga kirish davrida yoshlar duch keladigan muammolar tahlil qilingan. Mualliflar oliy ta'lim tizimining mehnat bozoriga mosligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini, shu bois o'quv dasturlarida amaliy komponentlarning ulushi oshirilishi zarurligini ta'kidlaydilar.

World Bank tomonidan chop etilgan Connecting Higher Education and the Labor Market hisobotida oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishning eng samarali yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot mualliflari ta'lim jarayonida ishlab chiqarish amaliyotini majburiylashtirish, kasbiy yo'naltirish markazlarini rivojlantirish va bitiruvchilarning bandlik monitoringini yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar beradi.

ILO mutaxassislari Bridging the Employability Skills Gap in Higher Education nomli tahlilida esa malaka nomutanosibligini kamaytirish uchun mehnat bozorida o'zgarishlarga tezkor javob bera oladigan ta'lim tizimini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, oliy ta'lim muassasalari ish beruvchilar bilan uzviy hamkorlikda yangi o'quv modullarini ishlab chiqishi va o'qituvchilarni amaliy tajribaga ega mutaxassislar bilan birgalikda tayyorlashi lozim.

Harvey o'zining Defining and Measuring Employability nomli ishida "ishga moslik"ni aniqlash va o'lchash metodologiyasiga e'tibor qaratadi. U universitet bitiruvchilarining malakasini baholashda nafaqat akademik ko'rsatkichlar, balki ish beruvchilar fikri va real mehnat natijalarini ham hisobga olish kerakligini ilgari suradi.

Hora va hamkorlari tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan Integrative Review of Employability Literature nomli tahlilda esa so'nggi yillardagi empirik tadqiqotlar tizimli umumlashtirilgan. Mualliflar oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya muvaffaqiyatining uch asosiy omilini ajratib ko'rsatadilar: ta'lim dasturlarining moslashuvchanligi, ish beruvchilar ishtirokining darajasi va bitiruvchilarning o'zini rivojlantirishga tayyorligi.

Shuningdek, World Bankning Higher Education for Development nomli baholash hisobotida oliy ta'lim tizimining iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishdagi roli tahlil qilinib, rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi aloqalarni institutsional darajada mustahkamlash tavsiya etiladi.

Xalqaro manbalarining umumiy xulosasi shundan iboratki, oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash uchun ta'lim mazmunini kompetensiyaga yo'naltirish, universitet-sanoat hamkorligini rivojlantirish, bitiruvchilar bandligini doimiy monitoring qilish va davlat siyosatini moslashuvchanlashtirish muhimdir. Bu yondashuv bitiruvchilarning real iqtisodiyot talablariga tezroq moslashishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya darajasini xorijiy tajribalar bilan taqqoslash orqali baholashga qaratilgan bo'lib, unda miqdoriy va sifat tahlili metodlari uyg'un qo'llanilgan. Tadqiqot obyekti oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida bandlikka moslashuvi tashkil etadi. Tadqiqot predmeti sifatida ta'lim dasturlari mazmuni, amaliyot tizimi, kompetensiya talablari hamda bandlik natijalari olingan.

Tahlil uchun 2020–2024-yillar oralig'idagi rasmiy va xalqaro ochiq ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlari asosida bandlik, yoshlar bandligi va ta'lim qamrovi o'rganilgan. World Bank Open Data manbasi orqali yoshlar ishsizligi darajasi (ILO modeled estimate) tahlil qilingan. Ish beruvchilar assotsiatsiyasi tomonidan kompetensiya bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari, WEF va OECD hisobotlaridagi kelajak ko'nikmalari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, Oliy ta'lim vazirligi tomonidan yuritilgan bitiruvchilar bandlik monitoringi tahlilga kiritilgan.

Miqdoriy yondashuvda statistik ma'lumotlar asosida yoshlar ishsizligi darajasi, bandlik ulushi, amaliyot samaradorligi hamda kompetensiyalar bo'yicha tafovutlar o'rganilgan. Sifat tahlilida esa xorijiy modelning O'zbekiston sharoitiga moslashuvi institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy omillar kontekstida tahlil qilingan. Ilk bor xorijiy tizimlar bandlik va kompetensiya samaradorligi bo'yicha o'zaro solishtirma mezon asosida baholangan hamda O'zbekiston uchun modellashtirilgan integratsiya yo'l xaritasi taklif etilgan.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida ayrim sohalarida statistik ma'lumotlarning to'liq raqamlashtirilmaganligi, ish beruvchilar so'rovi natijalarining subyektiv bo'lish ehtimoli va dual ta'lim tizimining hududlar kesimida farqlanishi



qayd etiladi. Umuman olganda, metodologiya bo'limidan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, bandlik natijalari ta'lim sifati, amaliyot samaradorligi va kompetensiya mosligi darajasiga bevosita bog'liqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiya universitetlarining raqobatbardoshligi oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu raqobat ustunligini ta'minlaydi va muayyan iste'molchilar guruhlarining talablariga javob beradi. Rossiya universitetlarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar quyidagilar:

- mutaxassislar tayyorlash uchun sifat menejmenti tizimining mavjudligi;
- ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda yuqori raqobatbardosh ta'lim dasturlari guruhining roli;
- zamonaviy o'quv va moddiy-texnika bazasiga asoslangan innovatsion ta'lim jarayonining samaradorligi;
- mintaqaviy, federal va xorijiy darajadagi ilmiy-texnikaviy, ma'muriy, iqtisodiy hamda biznes hamkorligi tizimining moslashuvchanligi;
- universitet imijini oshirish va tayyorlanayotgan mutaxassislarga yuqori talabni shakllantirish.

Xalqaro reytinglarda o'rin egallashlari uchun oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi raqobatbardoshlikning tarkibiy elementlari 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).

1-rasm. OTM va mehnat bozori raqobatbardoshligining tarkibiy qismi elementlari¹

Xalqaro ta'lim reytinglari alohida OTMlar raqobatbardoshligining muhim ko'rsatkichi va mamlakatda ta'lim tizimining rivojlanish darajasi indikatorini hisoblanadi. Eng taniqli reytinglar tarkibiga Shanxay reytingi (ARWU-500), kompaniyalar universitetlari reytingi QS (QS WUR) hamda Times Higher Education World University Rankings (THE WUR) kiradi².

Reytinglar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, OTM va mehnat bozori integratsiyasining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ilmiy-pedagogik xodimlar va talabalar sonining nisbati;
- universitetning bir xodimga to'g'ri keladigan iqtiboslar soni;
- xorijiy xodimlar va xorijiy talabalar ulushi;
- ishlab chiqarish (innovatsion) faoliyatdan olinadigan daromadlar;
- bir talaba yoki bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan universitetning umumiy daromadi³.

Qozog'istonda oliy ta'lim va mehnat bozori samaradorligini oshirish, shuningdek, raqobatbardoshlik omillarini shakllantirish maqsadida turli mamlakatlarning klaster siyosatini amalga oshirish bo'yicha dasturlar tahlil qilinib, respublikada ta'lim klasterlarini yaratish uchun asos sifatida xizmat qilgan.

Qozog'istonda ta'lim klasterlarini tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutilgan:

- mamlakatning raqobatbardoshligini tiklash va mustahkamlash;
- iqtisodiy rivojlanishni faollashtirish;
- ish o'rinlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash;
- autsorsing risklarini baholash;
- yuqori qo'shimcha qiymatga ega malakali ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shish.

Ta'lim klasterlarini tashkil etish maqsadlari ("raqobatbardoshlik qutblari") quyidagilarni o'z ichiga oladi: ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish, tadqiqot loyihalarini amalga oshirish va global miqyosda ta'limni rivojlantirish. Raqobatbardoshlik qutblarining rezidentlarini tanlash mezonlari kompaniya rivojlanishining faol dinamikasini belgilaydi, yangi rezidentlarni jalb qilish hamda jahon bozorida sezilarli o'rin egallash qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, universitetlar atrofida klasterlar tuzish, ularning tarkibiga universitetlarni qo'shish mumkin. Klasterlarni tashkil etish shaklidan qat'i nazar, universitetlar va korxonalar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatiladi. Klasterlarning yaratilish g'oyasi universitetlarning biznes bilan hamkorligini yanada mustahkamlash imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonining amaliyot bilan integratsiyalashuviga olib keladi⁴.

Buyuk Britaniyada odatda universitetlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlar, bozor tahlillari va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etishi ularning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilgari universitetlar

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

2 Киреева Н.С., Слепенкова Е.В., Шипунова Т.С., Искандарян Р.А. Повышение конкурентоспособности вузов: международный опыт академического предпринимательства // Российское предпринимательство // Том 18, Номер 20, октябрь 2017. ISSN 1994-6937

3 Киреева Н.С., Слепенкова Е.В., Шипунова Т.С., Искандарян Р.А. Повышение конкурентоспособности вузов: международный опыт академического предпринимательства // Российское предпринимательство // Том 18, Номер 20, октябрь 2017. ISSN 1994-6937

4 Киреева Н.С., Слепенкова Е.В., Шипунова Т.С., Искандарян Р.А. Повышение конкурентоспособности вузов: международный опыт академического предпринимательства // Российское предпринимательство // Том 18, Номер 20, октябрь 2017. ISSN 1994-6937



tayanch va fundamental fanlarga yo'naltirilgan holda olingan natijalarni tijorat maqsadlarida qo'llash uchun mustaqil ishlashga majbur bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu chegaralar tobora shaffoflashib bormoqda. Tadqiqotlar va ishlanmalar sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun korxonalar va universitetlar o'rtasida innovatsion jarayonlar doirasida keng ko'lamli hamkorlik zarur bo'lmoqda.

Bundan tashqari, universitetlar o'zlarini konsalting xizmatlari, maslahatlar va o'zgarish dasturlarini taqdim etuvchi tashkilotlar sifatida namoyon etmoqda. Ko'plab holatlarda bu xizmatlar "sotuvchi-xaridor" o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatdan chiqib, ko'p tomonlama, uzoq muddatli hamkorlik shaklini oladi. Ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun universitetlar korxonalar va tashkilotlar bilan uzoq muddatli, o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatishi, qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur.

Buyuk Britaniyada ta'lim sohasida biznes va menejment oliy ta'limning eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri sanaladi. Deyarli barcha universitetlarda biznes maktablari yoki ularga o'xshash bo'limlar faoliyat yuritadi. "Biznes maktablar assotsiatsiyasi" (Buyuk Britaniyadagi barcha universitetlar biznes maktablari manfaatlarini ifodalovchi tashkilot) o'z tajribasi asosida a'zolarining biznes va jamiyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Universitetlar va biznes hamjamiyati o'rtasidagi hamkorlik metodologiyasini ishlab chiqish va modelini yaratishda ushbu assotsiatsiyaning tajribasi va sinovdan o'tgan yondashuvlari alohida e'tibor uyg'otadi. Xususan:

- biznes maktablari tadbirkorlik subyektlari bilan aloqalarni rivojlantirish uchun turli usullardan foydalanadi;
- universitetlarning intellektual resurslaridan innovatsion yondashuv asosida foydalanish orqali tijorat takliflarini diversifikatsiyalaydi;
- biznes maktablarining mahalliy hamjamiyat bilan o'rnatgan aloqalari turlarini belgilaydi va bunday munosabatlarni shakllantirish choralari ishlab chiqadi.

Buyuk Britaniya universitetlari tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim, kadrlar tayyorlash, ishga joylashtirish va iqtisodiyot sohalarida "hamkorlik institutlari" yaratilganiga bir necha o'n yilliklar o'tgan bo'lsa-da, mamlakatda hali ham nisbiy nobarqarorlik mavjud. Hududiy rivojlanish bo'yicha agentliklar hozirda yangi hodisa sifatida qaralmoqda. Kasaba uyushmalari esa kadrlar tayyorlash va ishga joylashtirish kontekstida o'z rolini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Yaqinda Buyuk Britaniyada hukumat ta'lim muassasalarini universitetlar va biznes hamjamiyatining ehtiyojlariga moslashtirish uchun moliyalashtirishni yanada qat'iy nazorat qilishga intilmoqda (1-jadval)⁵.

1-jadval. Oliy ma'lumotli mutaxassislarining iqtisodiyotda band bo'lganlar sohasidagi ulushi bo'yicha O'zbekiston va dunyoning ayrim mamlakatlari bilan qiyosiy tahlil⁶

Mamlakat nomi	Jami iqtisodiyotda bandlar, mln. kishi	Shundan ma'lumoti bo'yicha							
		oliy ma'lumotli		o'rta maxsus		o'rta		ma'lumotsiz	
		soni, mln. kishi	ulushi, %	soni, mln. kishi	ulushi, %	soni, mln. kishi	ulushi, %	soni, mln. kishi	ulushi, %
O'zbekiston	13541,1	4847,7	35,8	6337,2	46,8	2356,2	17,4	-	-
Rossiya ⁷	76190,0	25577,0	33,6	34081,0	44,8	16317,0	21,3	216,0	0,3
Qozog'iston	8780,8	29852,0	34,0	28096,0	32,0	28974,0	33,0	87,8	1,0
AQSh	137971,0	70877,0	51,4	62848,0	45,6	4017,0	2,9	228,0	0,1
Buyuk Britaniya	31382,0	14258,0	45,4	12347,0	39,3	4692,0	14,9	56,0	0,2
Fransiya	26563,0	11820,0	44,5	11149,0	42,0	3522,0	13,2	71,0	0,3
Yaponiya	54510,0	29780,0	54,6	24640,0	45,2	100,0	0,2	-	-

5 Повышение конкурентоспособности регионального вуза в условиях экономики знаний: монография / под ред. М.Я.Веселовского, М.А.Измайловой. – Москва: Научный консультант, 2024 – 200 с. ISBN 978-5-9906383-3-4. Текст: электронный. - URL: <https://znanium.ru/catalog/product/1023015>

6 O'zbekiston mehnat va bandlik. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – Toshkent, 2020. – 32 b.

7 Труд и занятость в России. Статистический сборник Федеральной службы Государственной статистики России. – М., 2019. – С. 20.



Ushbu bosqichda hukumat ta'lim va o'qitish sifati, shuningdek, mavjud ko'nikmalar darajasidagi katta o'zgarishlar faqat alohida tashkilotlarning sa'y-harakatlari bilan amalga oshirilishi mumkin emasligini anglab yetdi. Buyuk Britaniya "Ko'nikmalar bo'yicha hukumat strategiyasi"ni amalga oshirish orqali zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish muammosining dolzarbligini yanada oshirdi.

Xulosamizni isbotlash uchun iqtisodiyotda band aholi sonidagi oliy ma'lumotli mutaxassislarning ulushi bo'yicha dunyoning bir qator mamlakatlari bilan qiyosiy tahlil keltirilgan.

Oliy ta'lim va mehnat bozorida yuz berayotgan bu tub o'zgarishlar O'zbekistonning ta'lim sohasidagi salohiyatini keskin oshirishga hamda milliy iqtisodiyotning mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi (2-jadval)⁸:

2-jadval. Yoshlar ishsizligi dinamikasi (2020–2024-yillar)

Yil	Yoshlar ishsizlik (%)
2020	13.2
2021	13.0
2022	11.1
2023	10.86
2024	10.94

World Bank (ILO modeled estimate) ma'lumotlariga ko'ra pandemiya davrida yoshlar bandligiga bosim kuchaygan, ammo iqtisodiy tiklanish natijasida 2022-yildan boshlab ishsizlikning izchil pasayishi kuzatilmoqda.

Mehnat bozori hajmi ortib bormoqda, biroq ta'lim tizimidagi kompetensiyalar bozor talabidan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida o'quv dasturlarining eskiligi, dual ta'lim tizimining sust rivojlanayotgani, karyera xizmatlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani hamda ish beruvchilarning ta'lim jarayoniga kam jalb qilinishi ko'rsatiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi samaradorligi uchta asosiy omilga tayanadi:

1. Ish beruvchilar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi institutsional hamkorlik;
2. Ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalar ulushi;
3. Kompetensiyalarning mehnat bozori talablariga mosligi.

O'zbekiston uchun oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishning eng maqbul yo'li xorijiy tajribalar asosida Hybrid-Integratsion modelni shakllantirishdir. Mazkur model turli mamlakatlarda sinovdan o'tgan samarali yondashuvlarni birlashtirib, ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishni nazarda tutadi. Uning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayoni nafaqat nazariy bilim berishga, balki real ishlab chiqarish va amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqlikka asoslanadi. Natijada bitiruvchi mehnat bozoriga tayyor, malakali va moslashuvchan kadr sifatida shakllanadi (3-jadval).

3-jadval. Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi uchun Hybrid-Integratsion model tarkibi

Model tarkibi	Olinadigan davlat tajribasi	Kutilgan natija
Dual ta'lim	Fransiya	Ishga tayyor bitiruvchilar
Karyera markazlari	AQSH	Bandlik samaradorligi
Texnopark–startap ekotizimi	Koreya	Innovatsion iqtisodiyotga hissa
Kompetensiya modeli	Bolonya YEI	Malaka bo'yicha moslik

Mazkur modelning ustunligi shundaki, u "talaba → amaliyot → ish → karyera uzluksizligi" tamoyilini hayotga tatbiq etadi. Bunday uzviy tizim orqali oliy ta'lim muassasalari nafaqat bitiruvchilarning bandligini ta'minlaydi, balki mehnat bozorida raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va tez o'zgarayotgan iqtisodiy muhitga moslasha oladigan mutaxassislarni yetishtiradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish sektori uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar oqimi barqarorlashadi, ilmiy tadqiqotlar amaliy natijalar bilan uyg'unlashadi va iqtisodiyotda bilimga asoslangan rivojlanish mexanizmi mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mehnat bozori hajm jihatdan barqaror o'sib bormoqda, yoshlar bandligi ijobiy dinamikani namoyon etmoqda, shu bilan birga kompetensiyalarni mehnat bozori talablariga yanada yaqinlashtirish imkoniyatlari mavjud. Bu holat oliy ta'lim tizimini sifat va mazmun jihatidan

8 Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonida ishlab chiqilgan <https://data360.worldbank.org/en/economies>



izchil modernizatsiya qilish hamda ta'lim jarayonini real sektor ehtiyojlariga yo'naltirish zaruratini ko'rsatadi. Shu orqali ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi uzviy integratsiyani mustahkamlash, bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligini yanada kuchaytirish va kasbiy kompetensiyalarni iqtisodiyotning zamonaviy talablariga moslashtirish imkoniyati kengayadi.

Davlat darajasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar sifatida dual ta'limni rivojlantirishga doir maxsus qonun qabul qilish, ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini joriy etish hamda bandlik monitoringini yagona raqamli platforma orqali boshqarish muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi, kadrlar siyosatini ilmiy asosda rejalashtirishga, mehnat resurslarining samarali taqsimlanishiga va prognozlash tizimining takomillashishiga zamin yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalari darajasida har bir yo'nalish bo'yicha kompetensiya xaritalarini ishlab chiqish, karyera markazlari faoliyatini real bandlik ko'rsatkichlari bilan integratsiyalash, o'quv dasturlarini liderlik va muomala madaniyati kabi soft skills komponentlari bilan boyitish muhim metodik yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, 3–4 kurs talabalari uchun amaliyotni bevosita ish joylarida kamida 50 foiz ulushda tashkil etish ularning kasbiy shakllanishi va mehnat bozoriga tayyor kirib borishini ta'minlaydi.

Ish beruvchilar darajasida "sanoat ustozligi" tizimini joriy etish, kadrlar ehtiyojini yillik asosda prognozlab oliy ta'lim muassasalariga yetkazish hamda ularning huzurida shakllanayotgan startup loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash (seed funding) mexanizmlarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Ushbu hamkorlik modeli ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlaydi, innovatsion g'oyalar almashinuvini tezlashtiradi va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omilga aylanadi.

Prognozlarga ko'ra, ushbu metodik yondashuvlar bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilgach, 2026-yilga kelib yoshlar bandligi 7 foizga ortadi, dual ta'lim tizimining ulushi esa ikki baravarga oshadi. Natijada kompetensiya tafovuti hozirgi 40 foizdan 10–15 foizgacha qisqaradi. Bu esa ta'lim va mehnat bozori o'rtasida muvozanatni mustahkamlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda milliy bandlik siyosatini yangi strategik bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. The University of Chicago Press.
2. OECD. (2023). Education at a Glance: OECD Indicators. OECD Publishing.
3. World Economic Forum. (2023). The Future of Jobs Report. Geneva: WEF.
4. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
5. World Bank. (2024). Young Unemployment – ILO Modeled Estimates. World Bank Open Data. <https://data.worldbank.org>
6. Ministry of Higher Education of the Republic of Uzbekistan. (2023). Higher Education Statistics. Tashkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Mehnat bozori ko'rsatkichlari. <https://stat.uz>
8. Schwerdt, G., & Zwick, T. (2020). Apprenticeship training in Europe – outcomes and challenges. Journal of Labor Economics, 38(2), 421–452.
9. MEDEF France. (2022). Apprenticeship and Employment Outcomes in France. Paris.
10. NACE. (2023). Job Outlook: Employment Outcomes of College Graduates in the U.S. National Association of Colleges and Employers.
11. Korean Ministry of Education. (2023). University–Industry Cooperation and Startup Ecosystem.
12. European Higher Education Area (EHEA). (2022). Bologna Process Implementation Report.
13. Hakimov, A. (2021). Oliy ta'limda kompetensiya yondashuvi. Ta'lim taraqqiyoti, 4(3), 56–63.
14. Rasulov, B. (2022). Mehnat bozori modernizatsiyasi: yoshlar bandligi masalalari. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 7(2), 69–78.
15. ILO. (2023). Skills mismatch and the future of work. International Labour Organization.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>